	Impact of carboxyangiography on lipid profile and inflammatory markers in retired military personnel with critical limb ischemia and chronic kidney disease	
	<b>Tursunov J.T., Muminov Sh. K.</b>	
	Oyoq kritik ishemiyasi va surunkali buyrak kasalligi bo'lgan nafaqadagi harbiylarda karboxiografiyaning lipid profili va yallig'lanish markerlariga ta'siri.....	<b>95</b>
<b>11.</b>	<b>Хамидов О.А., Бобоева Н.А.</b>	
	Клиническая эффективность цифровой платформы в персонализации кардиореабилитации после инфаркта миокарда	
	<b>Xamidov O.A., Boboeva N.A.</b>	
	Clinical efficiency of the digital platform in personalizing cardiorehabilitation after myocardial infarction	
	<b>Xamidov O.A., Boboeva N.A.</b>	
	Miokard infarktidan keyin kardioreabilitatsiyani shaxsiylashtirishda raqamli platformaning klinik samaradorligi	<b>101</b>



Гадаев А.Г.

Ташкентский государственный медицинский университет  
Ташкент, Узбекистан

Халимова Х.Х.

Ташкентский государственный медицинский университет  
Ташкент, Узбекистан

### КЛИНИКО-ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СУТОЧНОГО МОНИТОРИРОВАНИЯ АРТЕРИАЛЬНОГО ДАВЛЕНИЯ ПРИ КОМОРБИДНОМ ТЕЧЕНИИ ХРОНИЧЕСКОЙ ОБСТРУКТИВНОЙ БОЛЕЗНИ ЛЁГКИХ И АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИИ

**For citation:** Gadayev A.G., Xalimova X.X. CLINICAL AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF 24-HOUR AMBULATORY BLOOD PRESSURE MONITORING IN COMORBIDITY OF CHRONIC OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE AND ARTERIAL HYPERTENSION. 2026, vol 7, issue 1.



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0974/2026/7/1/9>

#### АННОТАЦИЯ

В статье изучается важное клиническое значение суточного контроля артериального давления при коморбидном течении хронической обструктивной болезни легких с артериальной гипертензией. У этой группы пациентов было обнаружено повышение ночного кровяного давления по сравнению с дневным (профиль night-peaker).

**Ключевые слова:** хроническая обструктивная болезнь легких, артериальная гипертензия, суточный мониторинг артериального давления.

Gadayev A.G.

Tashkent state medical university  
Tashkent, Uzbekiston

Xalimova X.X.

Tashkent state medical university  
Tashkent, Uzbekiston

### CLINICAL AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF 24-HOUR AMBULATORY BLOOD PRESSURE MONITORING IN COMORBIDITY OF CHRONIC OBSTRUCTIVE PULMONARY DISEASE AND ARTERIAL HYPERTENSION

#### SUMMARY

The article examines the important clinical significance of daily blood pressure monitoring in the comorbid course of chronic obstructive pulmonary disease with arterial hypertension. In this group of patients, nighttime blood pressure was found to be elevated compared to daytime (night-peaker profile).

**Keywords:** chronic obstructive pulmonary disease, arterial hypertension, daily blood pressure monitoring.

Gadayev A.G.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

Xalimova X.X.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

### O'PKANING SURUNKALI OBSTRUKTIV KASALLIGI VA ARTERIAL GIPERTENZIYA KOMORBIDLIKDA KECHGANDA BIR KECHA-KUNDUZLIK QON BOSIMINI MONITORINGINING KLINIK VA AMALIY AHAMIYATI

#### ANNOTATSIYA

Maqolada o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi arterial gipertenziya bilan komorbidlikda kechganda bir kecha kunduzlik qon bosini nazoart qilishning muhim klinik ahamiyatga ega ekanligi o'rganilgan. Unda ushbu guruh bemorlarda tungi qon bosimini kunduzgiga nisbatan qo'tarilishi (night-peaker profili) aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi, arterial gipertenziya, bir kecha-kunduzlik qon bosimi monitoring.

**Кирish.** Butun dunyoda, shu jumladan Respublikamizda ham aholi umr ko'rishi davomiyligining uzayishi, amaliy tibbiyotga surunkali kasalliklarni davolashni samarali usullarini joriy etilishi patologik jarayonlarni ko'proq komorbidlikda kechishiga sabab bo'lmoqda. Shunday komorbid holatlardan biri o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligini (O'SOK) arterial gipertenziya bilan birga kechishi hisoblanadi [1]. Arterial gipertenziya (AG) bilan O'SOK birga kelishi yurak qon tomir kasalliklari havf yig'indisini sezilarli oshiradi va bir-birini kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [17]. Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimiz aholisi orasida 2021-yilda kelib birlamchi O'SOK tashxisi qo'yilganlar soni mutlaq raqamlarda 61 488 tani tashkil etgan va ulardan 41 186 nafari yoshi ulug' insonlar bo'lgan. 2022-yilga kelib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 54 049 va 34 724 ni tashkil etgan.

Aksariyat yuqumli bo'lmagan surunkali kasalliklar, shu jumladan, O'SOK va arterial gipertenziya ham ma'lum xavf omillarining (chekish, noto'g'ri ovqatlanish, kamharakatlik, yoshning ulg'ayishi) ta'sirida rivojlanadi [21,13] hamda ko'p hollarda komorbidlikda kechadi [14]. ECLIPSE kuzatuvlariga ko'ra ularning birgalikda kechishi 43% bo'lgan.

O'SOK mavjud bemorlarda ularning yoshi, tekshirilayotgan aholi va tekshirish usullariga bog'liq holda AG 6,8% dan 76,3% uchraydi va o'rtacha 34,3% ga teng [3] 25 – 64 yoshda AG mavjud bemorlarning har to'rttasidan birida O'SOK aniqlanadi [16]. Kasallik 60 - 70 yoshdagi erkaklarda eng ko'p qayd etiladi [3,5].

O'SOK bilan AG birga kelishi amaliyotda ishlayotgan shifokorlar uchun qator qiyinchiliklar tug'diradi. Qon bosimini o'lchashda shifokorlar tomonidan noaniqliklarga yo'l qo'yilsa, respirator belgilar bo'lmaganda spirogografiya tekshiruvlari umuman o'tkazilmaydi. Buyuk Britaniyada yoshi 40 dan oshgan havo yetishmasligi mavjud bemorlarning 97%ida chap qorincha qon otish fraksiyasi aniqlanadi ammo ularning 1/2 da obstruktiv buzilishlar aniqlansa ham faqat 1/3 da spirogografiya tekshiruvi o'tkaziladi [12].

AG bilan O'SOK birga kelishi yurak qon tomir kasalliklari havf yig'indisini sezilarli oshiradi va ularni har birini kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [17]. Qator prospektiv kuzatuvlarda (CARDIA, Honolulu Heart Program, Whitehall Study, Busselton Health Study, Buffalo Health Study va boshqalar) o'pka faoliyatining buzilishi bilan kardiovaskulyar kasalliklar hamda o'lim ko'rsatkichlari o'rtasida bog'liqlik aniqlangan. Bir soniyadagi forsirlangan nafas hajmining 10% kamayishi umumiy o'limni 14% va yurak qon tomir kasalliklaridan o'limni 28% ko'payishiga sabab bo'ladi [18].

Amerika Kardiologlar Kollegiyasi va Amerika Kardiologiya Assotsiatsiyasining 2025-yildagi yangi tavsiyalarida uyg'oqlik davrida o'lchanadigan barcha qon bosimi ko'rsatkichlari (klinika, shuningdek, ertalab va kechqurun o'lchanadigan yuqumli) va ambulator kuzatuvda kunduzgi ko'rsatkichlar universal maqsadli qon bosimi ko'rsatkichi sifatida <130/80 mm.sim.ust darajasida nazorat qilinishi taklif etilgan [7]. Klinik arterial qon bosimi yaxshi nazorat qilinsa ham, ertalabki va kunduzgi yashirin gipertenziya (uydagi arterial bosimning kunduzgi, ertalabki yoki kechki nazoratsiz ko'rsatkichlari) yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshiradi [9,10]. Uyg'oqlik davrida qon bosimining barcha ko'rsatkichlarini qat'iy nazorat qilish yurak-qon tomir hodisalarini sonini kamaytirish uchun samarali hisoblanadi.

Biroq, arterial gipertenziyani davolashda kunduzgi qon bosimi nazoratiga erishilgandan keyin ham salbiy xavf saqlanib qoladi. Bu yashirin nazoratsiz tungi gipertenziya hisoblanadi.

Arterial bosimni bir kecha-kunduzlik (sirkad) ritmining xarakterini uni monitoringi yordamida baholash mumkin. Ma'lumki, sog'lom insonlarda tungi qon bosimi kunduzgiga nisbatan 10-20% ga pasayadi (me'yoriy dipper pattern).

Nishon a'zolar zararlanmagan arterial gipertenziyali bemorlarda ham dipper pattern kuzatiladi; ammo, nishon a'zolar zararlanganlarda, odatda, arterial qon bosimining tungi pasayishi bilan non-dipper patternlar kuzatiladi. Bosimning tungi pasayish darajasiga qarab, kunlik profilning 4 turi ajratiladi: dipper, non-dipper, night-peaker va over-dipper [15,20]. Bu turlarning tasnifi arterial qon bosimining tungi pasayish darajasiga asoslangan. Bundan tashqari, ushbu bir kecha-kunduzlik qon bosimi ritmiga uning ertalabki ko'tarilishi, jismoniy yoki

ruhiy zo'riqish sababli kunduzgi ko'rsatkichlarning oshishi, shuningdek, uyqudagi obstruktiv apnoe holatlari, uyg'onish, tez uyqu bosqichi va tungi xatti-harakatlar, masalan, nikturiya tufayli yuzaga keladigan tungi qon bosimining ko'tarilishi ta'sir qiladi. Bu esa 24-soatlik kuzatuvda qon bosimining turli individual sirkad o'zgarishlarga olib keladi.

Ma'lumki, tungi uyqu paytida arterial bosim darajasi umumiy aholi hamda arterial gipertenziya bilan og'rigan bemorlarda yurak-qon tomir hodisalarini xavfi va nishon a'zolarining zararlanishi bilan chambarchas bog'liq [10].

Haqiqatan ham, bir kecha-kunduzlik qon bosimi monitoringining yirik ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda o'tkazilgan tadqiqotda keltirilishicha, tungi ambulator bosim kunduzgiga nisbatan, ayniqsa dorilar bilan davolanayotgan bemorlarda, o'limga olib keladigan va olib kelmaydigan yurak-qon tomir hodisalarini (insult, miokard infarkti va yurak-qon tomir sabablaridan o'lim) bilan chambarchas bog'liq [2]. "Night-peaker" tipidagi profil (kunduzgiga nisbatan tungi bosimning yuqori darajasi) yurak-qon tomir hodisalarini bilan uzviy bog'liqligi aniqlangan [19].

Ertalabki soatlar odatda yuqori xavf davri hisoblanadi, chunki aterosklerotik pilakchalarning yorilishi yoki arteroskleroz bilan zararlangan qon-tomiri sohalaridan qon ketishi ertalabki arterial bosimning ko'tarilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bu esa sovuq, jismoniy zo'riqish, chekish yoki ishdagi stress kabi zo'rg'atuvchi omillar bilan birgalikda kuchayadi va ertalabki soatlarda yurak-qon tomir hodisalarining rivojlanishiga olib keladi [8].

Shu o'rinda tungi gipertenziya nishon a'zolarining subklinik shikastlanishi bilan ham bog'liqligiga alohida e'tibor berish lozim. Bosh miyaning magnit-rezonans tomografiyasida aniqlanadigan "soqov" serebrovaskulyar kasalliklar, masalan, "soqov" miya infarktleri, mikro qon quyilishlar va oq moddaning zararlanishi, ko'pincha tungi gipertenziya va tungi vaqtda qon bosimining yetarli darajada pasaymasligi yoki ko'tarilishi ("non-dipper"/"night-peaker" patternlari) mavjud bo'lgan bemorlarda aniqlanadi [6].

Tungi gipertenziya qon bosimi >110/65 mm sim.ust. (Amerika Kardiologlar Kollegiyasi va Amerika Kardiologiya Assotsiatsiyasining 2025-yildagi tavsiyalariga muvofiq) sifatida aniqlanadi [15,20].

Tungi gipertenziyaning o'ziga xos xavfini tushuntiruvchi bir nechta geterogen patofiziologik mexanizmlar mavjud. Birinchidan, tungi gipertenziya a'zolarining yaqqol zararlanishi va patologik holatlarda gipertoniyaning yakuniy bosqichi bo'lishi hamda uyqu paytida chalqancha yotish tananing pastki qismidan yurakka venoz qaytishni kuchaytirishi va bu esa chap qorinchaga yuklamadan oldingi bosimni oshishiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida bayon qilinganlar qon bosimini bir kecha-kunduzlik monitoringi muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Lekin kuzatuvlar aksariyat hollarda AG yoki u yurak ishemik kasalligi bilan kechgan hollarda o'rganilgan. O'SOK va AG komorbidlikda kechgan bemorlarda o'tkazilgan qon bosimi monitoringi kuzatuvlari chegaralangan. Shu sababli biz oldimizga qayd etilgan guruh bemorlarida tashqi nafas faoliyatini sistolik qon bosimi ko'rsatkichlari bilan korrelyatsion bog'liqlik darajasi va uning bir kecha-kunduzlik monitoringini o'rganishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

**Tadqiqotning maqsadi:** o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi arterial gipertenziya bilan komorbidlikda kechgan bemorlarda bir kecha-kunduzlik monitoring natijalarini baholash.

**Tadqiqotning materiali va uslublari.** Tadqiqotga O'SOK arterial gipertenziya bilan komorbidlikda kechgan 291 nafar bemorlar (asosiy guruh) jalb qilindi. Solishtirma nazorat guruhi sifatida O'SOK arterial gipertenziyasiz kechgan 66 ta bemorlar jalb qilindi. Barcha kuzatuvdagi o'z navbatida O'SOK bo'yicha global tashabbus (Global Initiative for Chronic Obstructive Lung Disease – GOLD 2024) tomonidan tavsiya etilgan tasnifga mos ravishda mavjud 4 ta darajadan uchtagina ajratildi. Kasallikning I og'irlik darajasi shifoxonalarda davolanishga muxtoj bo'lmaganligi sababli kuzatuvga II-IV darajadagi bemorlar olindi.

**Natija.** Asosiy guruhda O'SOK ning II darajasi aniqlangan bemorlarning soni 18 ta bo'lib (o'rtacha 62,5±2,7 yosh), ulardan 13 nafari ayol va 5 tasi erkaklarni tashkil qildi. Nazorat guruhi 10 ta bemordan iborat bo'lib (o'rtacha 49,9±6,3 yosh), 2 ta ayol va 8 ta

erkaklar jalb etildi. Asosiy guruhda O'SOK ning III darajasi mavjud 92 nafar bemordan (o'rtacha 67,2±0,8 yosh) 48 nafari ayol va 43 tasi erkaklarni tashkil qildi. Ushbu darajadagi nazorat guruhiga jalb qilingan 13 nafar bemorlar (o'rtacha 50±3,06 yosh) 8 tasi ayol va 5 tasi erkakdan iborat bo'ldi. Arterial gipertenziya bilan komorbidlikda kechgan O'SOK ning IV darajasi mavjud bemorlarning soni 181 ta bo'lib (o'rtacha 68,4±0,7 yosh), ulardan 44 nafari ayol va 137 tasi erkaklarni tashkil qildi. Nazorat guruhi 43 ta bemordan iborat bo'lib (o'rtacha 56,5±2,41 yosh), 11 ta ayol va 32 ta erkaklar jalb etildi.

Yuqoridagi bilan bir qatorda bemorlar O'SOK ning klinik shakllari bo'yicha ham guruhlariga ajratildilar. Asosiy guruhda O'SOK ning bronxitik shakli aniqlangan bemorlarning soni 117 ta bo'lib (o'rtacha 66,1±0,8 yosh), ulardan 54 nafari ayol va 63 tasi erkaklarni tashkil qildi. Nazorat guruhi 22 ta bemordan iborat bo'lib (o'rtacha 67,5±1,03 yosh), 5 ta ayol va 17 ta erkaklar jalb etildi. Asosiy guruhda O'SOK ning emfizematoz klinik shakli mavjud 55 nafar bemordan (o'rtacha 67,5±1,03 yosh) 14 nafari ayol va 41 tasi erkaklarni tashkil qildi. Ushbu

klinik shakldagi nazorat guruhiga jalb qilingan 15 nafar bemorlar (o'rtacha 60,2±3,9 yosh) 1 tasi ayol va 14 tasi erkakdan iborat bo'ldi. Arterial gipertenziya bilan komorbidlikda kechgan O'SOK ning aralash shakli mavjud bemorlarning soni 119 ga teng bo'lib (o'rtacha 67,7±0,9 yosh), ulardan 41 nafari ayol va 78 tasi erkaklarni tashkil qildi. Nazorat guruhi 29 ta bemordan iborat bo'lib (o'rtacha 53,6±2,8 yosh), 12 ta ayol va 17 ta erkaklar jalb etildi.

Bemorlarda asbobiy tekshiruvlar qatoridan bir kecha-kunduzlik qon bosimi monitoringi ("EC-ABP" (LABTECH, Vengriya)) va tashqi nafas faoliyatini baholash maqsadida spirometriya ("Spirometer SP100" (Contec Medical Systems, Xitoy)) o'tkazildi.

**Tadqiqot natijalari muhokamasi.** Kuzatuvdagi bemorlarda O'SOK ning og'irlik bosqichlari kesimida bir kecha-kunduzlik qon bosimi monitoringi ko'rsatkichlari tahlil qilinib, arterial gipertenziya bilan komorbidlikda kechishining gemodinamik xususiyatlari o'rganildi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligining turli og'irlik bosqichlari arterial gipertenziya bilan kechganda bir kecha-kunduzlik qon bosimi monitoringi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligining og'irlik bosqichlari					
	II	III	p (1-2)	IV	p (1-3)	p (2-3)
	O'SOK + AG n=18	O'SOK + AG n=92		O'SOK + AG n=181		
Kunduzgi sistolik qon bosimi, mm.sim.ust.	149,72±2,48	152,1±0,75	>0,05	153,18±0,69	>0,05	>0,05
Tungi sistolik qon bosimi, mm.sim.ust.	131,61±3,1	142,8±1,9	<0,01	132,76±1,04	>0,05	<0,001
Kunduzgi diastolik qon bosimi, mm.sim.ust.	82,05±3,01	85,25±1,6	>0,05	86,7±0,71	>0,05	>0,05
Tungi diastolik qon bosimi, mm.sim.ust.	71,89±2,4	79,99±1,78	<0,01	83,7±0,83	<0,001	>0,05

O'tkazilgan monitoring natijasida kunduzgi sistolik qon bosimi O'SOK ning II og'irlik bosqichida 149,72±2,48 mm sim.ust., kasallikning III og'irlik bosqichida 152,1±0,75 mm sim.ust. va IV og'irlik bosqichida 153,18±0,69 mm sim.ust. ni tashkil etdi. O'SOK ning bosqichlari og'irlashi borishiga parallel ravishda qon bosimi ko'rsatkichlarining ko'tarilishi kuzatilgan bo'lsa ham, ammo ular orasidagi ishonchli farq kuzatilmadi (p>0,05). Olingan natija kunduzgi sistolik qon bosimi ko'rsatkichlarini og'irlik bosqichlari kesimida nisbatan barqaror saqlanishini tasdiqlaydi.


Tungi sistolik qon bosimi ko'rsatkichlari kasallikning II bosqichida 131,61±3,1 mm sim.ust., III bosqichda esa 142,8±1,9 mm sim.ust. va IV og'irlik bosqichida 132,76±1,04 mm sim.ust. ga teng bo'ldi. Kasallikning II va III og'irlik bosqichlari orasida sistolik qon bosimining ishonchli o'sishi qayd etildi (p<0,01), III-IV og'irlik bosqichlari o'zaro solishtirilganda ham ishonchli farq aniqlandi (p<0,001). Lekin oldingilardan farqli o'laroq II-IV og'irlik bosqichlari

orasida sistolik qon bosimi ko'rsatkichlarida farqlar ishonchsiz ekanligi kuzatildi (p>0,05).

Kuzatuvimizdagi bemorlarda O'SOK ning II, III va IV og'irlik bosqichlarida kunduzgi diastolik qon bosimi mos ravishda 82,05±3,01, 85,25±1,6 hamda 86,7±0,71 mm sim.ust. ni tashkil etdi va ular orasida ishonchli farq kuzatilmadi (p>0,05).

Tungi diastolik qon bosimi II bosqichda 71,89±2,4 mm sim.ust., III bosqichda 79,99±1,78 mm sim.ust., IV bosqichda 83,7±0,83 mm sim.ust. bo'lib, II-III bosqichlar orasida ishonchli o'sish qayd etildi (p<0,01). II-IV og'irlik bosqichlari orasida yuqori ishonchli farq kuzatildi (p<0,001). Ulardan farqli o'laroq, III-IV bosqichlar orasida ishonchli farq aniqlanmadi (p>0,05). Olingan natijalar O'SOK ning og'irlik bosqichlariga parallel ravishda tungi diastolik qon bosimining oshib borishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqotga jalb etilgan bemorlarda qon bosimi ko'rsatkichi profillarini ham ularning og'irlik bosqichlaridan kelib chiqib solishtirma o'rgandik. Olingan natijalar 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligining turli og'irlik bosqichlari arterial gipertenziya bilan kechganda bir kecha-kunduzlik qon bosimi profillari

Bir kecha-kunduzlik qon bosimi profillari taxlili “dipper” fenotipi O’SOK ning II og’irlik bosqichida 11 nafar (61,1%), III bosqichida 14 nafar (15,2%) va IV bosqichida 20 nafar (11%) bemorlarda kuzatilishini ko’rsatdi.

II–III va II–IV bosqichlar orasida ishonchli farq qayd etildi ( $\chi^2=44,907$  va  $54,253$ ;  $p<0,001$ ), III–IV bosqichlar orasida esa farq ishonchsiz bo’ldi ( $\chi^2=0,707$ ;  $p>0,05$ ).

“Night-peaker” profili O’SOK ning II og’irlik bosqichida 2 nafar (11,1%), III bosqichida 39 nafar (42,4%) va IV bosqichida 41 nafar (22,7%) bemorlarda kuzatildi. Olingan natijalar kasallikning II–III bosqichlari orasida yuqori ishonchli o’sish mavjudligini tasdiqladi ( $\chi^2=24,669$ ;  $p<0,001$ ). Shuningdek, II–IV va III–IV og’irlik bosqichlari o’zaro solishtirilganda ham ishonchli farq qayd etildi ( $\chi^2=5,103$ ;  $p<0,05$  va  $\chi^2=8,228$ ;  $p<0,01$ ).

O’SOK ning III og’irlik bosqichida tungi gipoksemiya holatlari negizida karotid xemorefleks orqali simpatik asab tizimi faolligining kuchayishi kuzatilib, qon bosimining tunda keskin ko’tarilishi — night-peaker profili shakllanishiga olib keladi deyishga asos bo’ladi. IV bosqichda esa surunkali gipoksemiya natijasida kompensator mexanizmlarning nisbatan susayishi barqaror gemodinamika patologik xarakter kasb etadi va bu holatda ko’proq non-dipper fenotipi ustunlik qiladi. Shu sababli III bosqichda night-peaker ulushining yuqoriligi o’rtacha tungi sistolik qon bosimi ko’rsatkichlarini IV og’irlik bosqichga nisbatan balandroq bo’lishini ta’minlaydi. Kario K. va hammuallflarning fikricha arterial qon bosimining tunda ko’tarilishi nafaqat mavjud kasallikning bosqichlarini, balki patofiziologik mexanizmlarni ham aks ettirishini tasdiqlaydi va bu biz olgan natijalarga yaqin keladi.

2-jadval

O’pkaning surunkali obstruktiv kasalligining turli klinik shakllari arterial gipertenziya bilan kechganda bir kecha-kunduzlik qon bosimi monitoringi ko’rsatkichlari

Ko’rsatkichlar	O’pkaning surunkali obstruktiv kasalligining klinik shakllari					
	Bronxitik (1)	Emfizematoz (2)	p (1-2)	Aralash (3)	p (1-3)	p (2-3)
	O’SOK + AG n=117	O’SOK + AG n=55		O’SOK + AG n=119		
Kunduzgi sistolik qon bosimi, mm.sim.ust.	152,25 ± 1,37	142 ± 2,65	<0,001	157,1 ± 0,57	<0,01	<0,001
Tungi sistolik qon bosimi, mm.sim.ust.	143,85 ± 1,01	137,2 ± 3,1	<0,05	151,55 ± 0,85	<0,001	<0,001
Kunduzgi diastolik qon bosimi, mm.sim.ust.	83,1 ± 1,25	86 ± 1,8	>0,05	86,5 ± 0,56	<0,05	>0,05
Tungi diastolik qon bosimi, mm.sim.ust.	75,64 ± 0,6	74,2 ± 2,02	>0,05	83,4 ± 0,8	<0,001	<0,001

Biz O’SOK ning nafaqat og’irlik bosqichlari, balki turli klinik shakllarida ham qon bosimi ko’rsatkichlarini o’zaro solishtirma o’rgandik. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.


Unga ko’ra, kunduzgi sistolik qon bosimi O’SOK ning bronxitik shaklida 152,25±1,37 mm sim.ust., emfizematoz shaklida 142±2,65 mm sim.ust., aralash shaklida 157,1±0,57 mm sim.ust. ni tashkil etdi. Emfizematoz va aralash hamda bronxitik va emfizematoz shakllar orasida yuqori ishonchli ( $p<0,001$ ), bronxitik va aralash shakllar orasida esa ishonchli ( $p<0,01$ ) farqlar qayd etildi.

Tungi sistolik qon bosimi kasallikning bronxitik, emfizematoz va aralash shakllarida mos ravishda 143,85±1,01, 137,2±3,1 hamda 151,55±0,85 mm sim.ust. ga teng ekanligi aniqlandi. Uning bronxitik va emfizematoz shakllari orasida ishonchli ( $p<0,05$ ), bronxitik va aralash, hamda emfizematoz va aralash klinik shakllar o’rtasida esa yuqori ishonchli ( $p<0,001$ ) farqlar kuzatildi.

Tadqiqotga jalb etilgan bemorlarda kunduzgi diastolik qon bosimi O’SOK ning bronxitik shaklida 83,1±1,25 mm sim.ust., emfizematoz shaklida 86±1,8 mm sim.ust. va aralash shaklida 86,5±0,56 mm sim.ust. ni tashkil etdi. Bronxitik va aralash shakllar orasida ishonchli farq qayd etildi ( $p<0,05$ ).

Tungi diastolik qon bosimi O’SOK ning bronxitik shaklida 75,64±0,6 mm sim.ust., emfizematoz shaklida 74,2±2,02 mm sim.ust., aralash shaklida 83,4±0,8 mm sim.ust. ga teng bo’ldi. Bronxitik va aralash, hamda emfizematoz va aralash klinik shakllar o’zaro solishtirilganda, guruhlar orasida yuqori ishonchli farq aniqlandi ( $p<0,001$ ).

O’SOK ning klinik shakllarida qon bosimi profillarida aniqlangan o’zgarishlar 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. O’pkaning surunkali obstruktiv kasalligining turli klinik shakllari arterial gipertenziya bilan kechganda bir kecha-kunduzlik qon bosimi profillari

Bir kecha-kunduzlik qon bosimi profillari tahlili “dipper” fenotipi O‘SOK ning bronxitik shaklda 40 nafar (34,2%), emfizematoz shaklda 11 nafar (20%) kuzatilib, aralash shaklda esa ushbu profil qayd etilmadi. Bunda bronxitik va emfizematoz shakllar orasida ishonchli ( $\chi^2=4,972$ ;  $p<0,05$ ), bronxitik va aralash hamda emfizematoz va aralash shakllar orasida esa yuqori ishonchli ( $\chi^2=40,964$  va  $22,222$ ;  $p<0,001$ ) farqlar kuzatildi.

Qon bosimining “non-dipper” profili O‘SOK ning bronxitik shaklda 77 nafar (65,8%), emfizematoz shaklda 22 nafar (40%) va aralash shaklda 60 nafar (50,4%) tadqiqotga jalb etilgan bemorlarda qayd etildi. Kasallikning bronxitik va emfizematoz ( $\chi^2=13,569$ ;  $p<0,001$ ) hamda bronxitik va aralash ( $\chi^2=5,255$ ;  $p<0,05$ ) klinik shakllarida ishonchli farqlar aniqlandi.

“Night-peaker” profili bronxitik shaklda qayd etilmadi (0%), emfizematoz shaklda 22 nafar (40%) va aralash shaklda 59 nafar

(49,6%) bemorlarda kuzatildi. Bronxitik va emfizematoz hamda bronxitik va aralash shakllar orasida yuqori ishonchli farqlar qayd etildi ( $\chi^2=50,000$  va  $66,667$ ;  $p<0,001$ ).

**Xulosa.** Olingan natijalar O‘SOK ning aralash va emfizematoz klinik shakllarida tungi qon bosimi ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘lishini tasdiqlaydi. O‘tkazilgan tahlil ushbu guruh bemorlarda patologik bir kecha-kunduzlik profillar (non-dipper va night-peaker) ustunlik qilishini, binobarin klinik fenotipga bog‘liq ravishda vegetativ disregulyatsiya va bir kecha-kunduzlik gemodinamik nazoratning chuqurroq buzilishini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda biz o‘rgangan adabiyotlarda yuqorida olingan natijalarni tasdiqlovchi va ularga qarama-qarshi fikrlar mavjudligini alohida ta’kidlab o‘tmoqchimiz [4,23].

#### Список литературы/References/Iqtiboslar:

- Balbir Singh V, Mohammed AS, Turner AM, et al. Cardiovascular disease in chronic obstructive pulmonary disease: a narrative review. *Thorax* 2022;77:939-945
- Boggia J, Li Y, Thijs L, et al.; International Database on Ambulatory blood pressure monitoring in relation to Cardiovascular Outcomes (IDACO) investigators. Prognostic accuracy of day versus night ambulatory blood pressure: a cohort study. *Lancet*. 2007;370:1219–1229. doi: 10.1016/S0140-6736(07)61538-4
- Chazova I.E., Lazareva N.V., Oshchepkova E.V. Arterial hypertension and chronic obstructive pulmonary disease: clinical characteristics and treatment effectiveness (according to the National Register of Arterial Hypertension. *Therapeutic Archive*. 2019; 91 (3): 4–10 (in Russian)
- Crinion SJ, Kleinerova J, Kent B, et al. Non-dipping nocturnal blood pressure correlates with obstructive sleep apnoea severity in normotensive subjects and may reverse with therapy. *ERJ Open Res*. 2021;7(3):00338-2021. Published 2021 Aug 16. doi:10.1183/23120541.00338-2021
- Global Initiative for Chronic Obstructive Lung Disease. *Global Strategy for the Diagnosis, Management, and Prevention of Chronic Obstructive Pulmonary Disease*. Revised. 2019
- Henskens LH, van Oostenbrugge RJ, Kroon AA, de Leeuw PW, Lodder J. Brain microbleeds are associated with ambulatory blood pressure levels in a hypertensive population. *Hypertension*. 2008;51:62–68. doi: 10.1161/HYPERTENSIONAHA.107.100610
- Jones, D, Ferdinand, K, Taler, S. et al. 2025 AHA/ACC/AANP/AAPA/ABC/ACCP/ACPM/AGS/AMA/ASPC/NMA/PCNA/SGIM Guideline for the Prevention, Detection, Evaluation, and Management of High Blood Pressure in Adults: A Report of the American College of Cardiology/American Heart Association Joint Committee on Clinical Practice Guidelines. *JACC*. 2025 Nov, 86 (18) 1567–1678. <https://doi.org/10.1016/j.jacc.2025.05.007>
- Kario K, Tomitani N, Kanegae H, Yasui N, Nishizawa M, Fujiwara T, Shigezumi T, Nagai R, Harada H. Development of a new ICT-based multisensor blood pressure monitoring system for use in hemodynamic biomarker-initiated anticipation medicine for cardiovascular disease: the National IMPACT program project. *Prog Cardiovasc Dis*. 2017;60:435–449. doi: 10.1016/j.pcad.2017.10.002
- Kario K. Evidence and perspectives on the 24-hour management of hypertension: hemodynamic biomarker-initiated ‘Anticipation Medicine’ for zero cardiovascular event. *Prog Cardiovasc Dis*. 2016;59:262–281. doi: 10.1016/j.pcad.2016.04.001.
- Kario K. Global impact of 2017 American Heart Association/American College of Cardiology Hypertension Guidelines: an perspective from Japan. *Circulation*. 2018;137:543–545. doi: 10.1161/CIRCULATIONAHA.117.032851
- Kario K. Nocturnal Hypertension: New Technology and Evidence. *Hypertension*. 2018;71(6):997-1009. doi:10.1161/HYPERTENSIONAHA.118.10971
- Muthusami R, Mahmoud M, Crawford E et al. Assessment of chronic obstructive airways disease in heart failure: An analysis of current practice. *Am J Respiratory Crit Care Med* 2018; 197: 1244
- Nevzorova V.A., Brodskaya T.A., Martynenko I.M. et al. Prevention of major chronic non-infectious diseases in the structure of mortality. V. 1. Vladivostok: Medicine DV, 2017
- Oganov R.G., Denisov I.N., Simanenkova V.I. et al. Comorbid pathology in clinical practice. *Clinical recommendations. Cardiovascular Therapy and Prevention*. 2017; 16 (6): 5–56
- Parati G, Stergiou G, O’Brien E, et al.; European Society of Hypertension Working Group on Blood Pressure Monitoring and Cardiovascular Variability. European Society of Hypertension practice guidelines for ambulatory blood pressure monitoring. *J Hypertens*. 2014;32:1359–1366. doi: 10.1097/HJH.0000000000000221
- Rabahi MF, Pereira SA, Silva Júnior JL et al. Prevalence of chronic obstructive pulmonary disease among patients with systemic arterial hypertension without respiratory symptoms. *Int J Chron Obstruct Pulmon Dis* 2015; 10: 1525–9. DOI: 10.2147/COPD.S85588.
- Rao S, Nazarzadeh M, Li Y, et al. Systolic blood pressure, chronic obstructive pulmonary disease and cardiovascular risk. *Heart* 2023;109:1216-1222
- Rydell A, Janson C, Lisspers K, Lin YT, Årnlöv J. FEV1 and FVC as robust risk factors for cardiovascular disease and mortality: Insights from a large population study. *Respir Med*. 2024 Jun;227:107614. doi: 10.1016/j.rmed.2024.107614. Epub 2024 Apr 25. PMID: 38670319.
- Salles GF, Reboldi G, Fagard RH, Cardoso CR, Pierdomenico SD, Verdecchia P, Eguchi K, Kario K, Hoshida S, Polonia J, de la Sierra A, Hermida RC, Dolan E, O’Brien E, Roush GC; ABC-H Investigators. Prognostic effect of the nocturnal blood pressure fall in hypertensive patients: the ambulatory blood pressure collaboration in patients with hypertension (ABC-H) meta-analysis. *Hypertension*. 2016;67:693–700. doi: 10.1161/HYPERTENSIONAHA.115.06981
- Shimamoto K, Ando K, Fujita T, et al.; Japanese Society of Hypertension Committee for Guidelines for the Management of Hypertension. The Japanese Society of Hypertension Guidelines for the Management of Hypertension (JSH 2014). *Hypertens Res*. 2014;37:253–390. doi: 10.1038/hr.2014.20
- World Health Organization. *Noncommunicable diseases country profiles*. 2018

22. World Health Organization. World report on ageing and health. 2016
23. Кароли Н.А., Долишня Г.Р., and Ребров А.П.. "Суточные показатели артериальной ригидности у мужчин с различными фенотипами хронической обструктивной болезни легких в сочетании с артериальной гипертензией" Клиницист, vol. 9, no. 1, 2015, pp. 37-41